

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining
2024- yil 8 may dagi
92 - son buyrug'iga
Ilova

**Alkogolli ichimliklar balansini tuzish,
aholi jon boshiga alkogolli ichimliklar iste'molini
hisoblash bo'yicha uslubiy nizom**

Alkogolli ichimliklar balansini tuzish, aholi jon boshiga alkogolli ichimliklar iste'molini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) mulkchilik shakli va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar bo'yicha alkogolli ichimliklar resurslarini shakllanishi va foydalanish hisobini to'liqligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Uslubiy nizomda aholining turli xildagi alkogolli ichimliklar iste'molini statistik kuzatish maqsadida, aholi jon boshiga alkogol iste'molini hisoblash usuli keltirilgan.

Uslubiy nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o'rinlarda–GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

I bob. Umumiy qoidalar

1. Uslubiy nizom GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. "Resurslar va foydalanish" balansini hisoblash usuli ichki bozorda alkogolli mahsulotlardan foydalanishning to'liq hajmini aniqlash imkonini beradi, statistik ma'lumotlarni bir-biri bilan bog'lash imkoniyatini va ayrim turdagi alkogolli va kuchsiz alkogolli mahsulotlar resurslarini foydalanish holatini tahlil qilish uchun asos hisoblanadi.

3. Balansda alkogolli mahsulotlar resurslarining shakllanishi va foydalanilishi aks ettiriladi. Resurslar hisobot davri boshiga tovarlar qoldig'i va resurslar tushumidan shakllanadi. Resurslardan foydalanish ichki va tashqi bozorlardagi iste'mol va hisobot davri oxiriga tovarlar qoldig'i mavjudligi bo'yicha kuzatiladi.

4. Alkogolli ichimliklar balansini (keyingi o'rinlarda – balans) ishlab chiqish quyidagi alkogolli ichimliklar turlari bo'yicha amalga oshiriladi:

a) aroq va liker-arq mahsulotlari (barcha turdagi aroq, o'tkir va desert likerlar, kremlar, aperitivlar, balzamlar, rom, viskilar, jinlar, desertli alkogolli ichimliklar);

b) vino (uzum, uzum vino ichimligini qo'shgan holda; meva-rezavor, vijillaydigan meva-rezavor ichimliklarni qo'shgan holda);

d) shampn vinosi, ko'piklanadigan vinoni qo'shgan holda;

e) konyak, konyakli ichimliklarni qo'shgan holda;

f) pivo.

5. Balans yuqorida ko'rsatilgan alohida har bir tovar bo'yicha natura o'lchov birligida (dal) yil boshidan oshib boruvchi yakunda ishlab chiqiladi (balans tuzilishi 1-ilovada keltirilgan).

II bob. Balanslarni ishlab chiqish uchun ma'lumotlar manbai va tarkibi

6. Balanslar hisobot davrida alkogolli ichimliklar resurslari va ulardan foydalanishni aks ettiradi.

Alkogolli mahsulotlar resurslaridan foydalanishning to'liq hajmi balansi "Resurslar" va "Resurslardan foydalanish" bo'limlaridan tashkil topadi.

7. "Resurslar" bo'limi quyidagilardan iborat:

a) "Hisobot davri boshiga qoldiqlar" ko'rsatkichi – alkogolli mahsulotlarning ulgurji va chakana savdo korxonalarida hamda ishlab chiqaruvchilardagi amaldagi qoldig'ini o'z ichiga oladi;

"Ulgurji savdo korxonalaridagi qoldiq" va "Chakana savdo korxonalaridagi qoldiq" satrlarida – alkogol bilan savdo qiluvchi korxonalardagi alkogolli ichimliklar qoldig'i ko'rsatiladi;

"Sanoatdagi qoldiq" satri ma'lumotlari, sanoat mahsulotini ishlab chiqarish to'g'risidagi statistik hisobot asosida shakllantiriladi;

b) "Resurslar tushumi" ko'rsatkichi alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilardan resurslarni kelib tushishi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi;

"Ishlab chiqarish" satriga alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqarish to'g'risidagi yig'ma ma'lumotlar kiritiladi;

"Import" ko'rsatkichi — bojxona statistikasi ma'lumotlari asosida shakllanadi;

d) "Jami resurslar" satrida alkogolli mahsulotlarni jami ishlab chiqarish hajmi, uzoq va yaqin xorijdan kelib tushishi, ishlab chiqaruvchilardagi, ulgurji va chakana savdo korxonalaridagi hisobot davri boshiga tovar zaxiralari ko'rsatiladi.

8. "Resurslardan foydalanish" bo'limi alkogolli mahsulotlar resurslarini taqsimlanishi, ichki bozordagi ularning iste'moli, eksport va hisobot davri oxiriga qoldiqlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi;

a) ichki bozordagi iste'mol to'g'risidagi ma'lumotlar "Aholiga sotish" satrida chakana savdo va ovqatlanish obyektlarida sotish to'g'risidagi statistik hisobot ma'lumotlari asosida ko'rsatiladi;

b) "Eksport" satri bojxona statistikasi ma'lumotlari asosida shakllanadi;

d) "Hisobot davri oxiriga qoldiq" satrida ishlab chiqaruvchilar, ulgurji va chakana savdo korxonalaridagi hisobot davri oxiriga alkogolli mahsulotlar qoldig'i to'g'risidagi ma'lumotlar jamlanadi;

"Ulgurji savdo korxonalaridagi qoldiq" va "Chakana savdo korxonalaridagi qoldiq" ko'rsatkichlari ulgurji va chakana savdo korxonalarining ovqatlanish korxonalarini qo'shgan holatdagi ma'lumotlaridan iborat;

"Sanoatdagi qoldiq" ko'rsatkichi sanoat korxonalarining statistika hisobotlari asosida to'ldiriladi.

9. 6 va 7-bandlarda ko'rsatilgan alkogolli ichimliklar balansini ishlab chiqishda, 2-ilovaga muvofiq statistika hisoboti va bojxona statistikasidan foydalaniladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

10. "Ichki bozor iste'moli" ko'rsatkichi balans usulida, ya'ni "Jami resurslar" satridan eksport va hisobot davri oxiriga qoldiq hajmini ayirish yo'li bilan shakllantiriladi.

$$Q_i = R_i - E_i - L_i \quad (1)$$

bunda,

Q_i – ichki bozor iste'moli uchun i – turdagi alkogolli ichimlikning natura ko'rinishidagi miqdori;

R_i – jami resurslar yig'indisi bo'yicha i – turdagi alkogolli ichimlikning (ishlab chiqarish hajmi, import, ishlab chiqaruvchi va savdo korxonalaridagi hisobot davri boshiga zaxiralari) natura ko'rinishidagi miqdori;

E_i – eksport qilingan i – turdagi alkogolli ichimlikning natura ko'rinishidagi miqdori;

L_i – i – turdagi alkogolli ichimlikning (ishlab chiqaruvchi va savdo korxonalaridagi) natura ko'rinishidagi yil oxiriga qoldig'i.

III bob. Ichki bozorda alkogolli mahsulotlar sotilishini qo'shimcha baholash

11. Balans usulida olingan ichki bozorda alkogolli ichimliklarning iste'moli to'g'risidagi ma'lumotlar "Aholiga sotish" satri ma'lumotlari bilan solishtiriladi, agar nomutanosiblik bo'lsa, quyidagi formula orqali alkogolli mahsulotlarning har bir turi bo'yicha sotish hajmini qayta baholash koeffitsiyenti aniqlanadi:

$$RK_i = \frac{Q_i}{S_i} \quad (2)$$

bunda,

RK_i – i – turdagi alkogolli mahsulotlarni sotish hajmini qayta baholash koeffitsiyenti;

Q_i – balans bo'yicha i – turdagi alkogolli mahsulot resurslaridan foydalanish;

S_i – amalda aholiga i – turdagi alkogolli mahsulotlarni sotilishi (hisobot bo'yicha).

12. Olingan koeffitsiyent respublika bo'yicha ichki bozorda aholiga alkogolli mahsulotlar sotish ma'lumotlarini to'g'rilashda foydalaniladi.

Bunda, agar $RK_i > 1$ bo'lsa, mos ravishda alkogolli mahsulotlar sotish hajmi ko'payish tomonga qayta baholanadi.

Ayrim alkogolli ichimliklar turlari bo'yicha koeffitsiyentlar quyidagicha:

№	Tovar nomi (Q_i)	Koeffitsiyentlar (K_i)
1	Aroq va liker aroq mahsulotlari	0,40
2	Vino	0,144
3	Konyak	0,41
4	Shampan vinosi	0,11
5	Pivo	0,0389

13. Alkogolli ichimliklar alohida turlarini absolyut alkogolga qayta hisoblash natura ko'rinishidagi iste'mol hajmini tegishli bir litr alkogolli ichimlik tarkibidagi 100 foizlik spirtni aks ettiruvchi qayta hisoblash koeffitsiyentiga ko'paytirish orqali amalga oshiriladi.

Alkogolli ichimliklar alohida turlari absolyut alkogolga qayta hisoblash formulasi:

bunda,

$$A = \sum_{i=1}^n Q_i * K_i \quad (3)$$

A – absolyut alkogolga qayta hisoblangan hajm;

Q_i – i – turdagi alkogolli ichimlikning natura ko'rinishidagi miqdori;

K_i – i – turdagi alkogolli ichimlik tarkibidagi spirtni aks ettiruvchi qayta hisoblash koeffitsiyenti.

14. Alkogolli ichimliklar iste'molining umumiy hajmi absolyut alkogolga qayta hisoblab chiqilgan alohida alkogolli ichimliklar turlarini sotish yig'indisi orqali aniqlanadi.

IV bob. Aholi jon boshiga alkogol iste'molini hisoblash

15. Alkogolli ichimliklarning aholi jon boshiga iste'molini natura ko'rinishida hisoblash har bir alkogolli ichimlikning yoki jami natura ko'rinishidagi sotilish hajmini, mavjud aholining 15 yosh va undan yuqori o'rtacha yillik soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

$$PC = \frac{A}{P} \quad (4)$$

bunda,

PC – aholi jon boshiga absolyut alkogol iste'moli hajmi;

A – absolyut alkogolga qayta hisoblangan hajm;

P – 15 yosh va undan yuqori aholining o'rtacha yillik soni.

16. Hududlar kesimida aholi jon boshiga alkogol iste'molini hisoblash (jami va turlari bo'yicha) natura ko'rinishida va absolyut alkogolga qayta hisoblangan holda quyidagi formula orqali amalga oshiriladi.

$$PC_r = \frac{A_r}{P_r} \quad (5)$$

bunda,

PC_r – aholi jon boshiga r - hududida absolyut alkogol iste'moli hajmi;

A_r – r - hududida absolyut alkogolga qayta hisoblangan hajm;

P_r – 15 yosh va undan yuqori aholining r - hududida o'rtacha yillik soni.

17. Absolyut alkogolga qayta hisoblangan alkogolli ichimliklarning aholi jon boshiga iste'moli, absolyut alkogolga qayta hisoblangan barcha alkogolli ichimliklar sotuvining umumiy hajmini mavjud aholining 15 yosh va undan yuqori o'rtacha yillik soniga bo'lish yo'li bilan respublika darajasida hisoblanadi.

V bob. Yakuniy qoidalar

18. Alkogolli ichimliklar balansini shakllantirish hamda alkogolli mahsulotlarni sotish to'g'risidagi ma'lumotlar yil uchun amalga oshiriladi.

Ushbu Uslubiy nizom statistika organlarida statistik ma'lumotlarni shakllantirish jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan.

19. Mazkur Uslubiy nizomni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari “Statistik ma’lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo’yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”ga muvofiq amalga oshirilgan.

Alkogolli ichimliklar balansini tuzish, aholi jon
boshiga alkogolli ichimliklar iste’molini hisoblash
bo’yicha uslubiy nizomga
1-Ilova

Balans tuzilishi

I. RESURSLAR	
1.1. Hisobot davri boshiga qoldiq	
<i>shu jumladan korxonalarda:</i>	
ulgurji savdoda	
chakana savdoda	
sanoatda	
1.2. Resurslar tushumi	
Ishlab chiqarish	
Import	
Jami resurslar	
II. RESURSLARDAN FOYDALANISH	
2.1. Ichki bozor iste’moli - aholiga sotish	
2.2. Eksport	
2.3. Hisobot davri oxiriga qoldiq	
<i>shu jumladan korxonalarda:</i>	
ulgurji savdoda	
chakana savdoda	
sanoatda	

Alkogolli ichimliklar balansini tuzish, aholi jon
boshiga alkogolli ichimliklar iste'molini hisoblash
bo'yicha uslubiy nizomga
2-Ilova

Yillik balansni hisoblash chizmasi

Bo'limlar nomi	Satr xos raqami	Ma'lumot manbai, hisob qoidalari
Hisobot davri boshiga qoldiq	01	$01 = 02+03+04$
<i>shu jumladan, korxonalarda</i>		
ulgurji savdo	02	Yillik 1 korxona shakli "Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida hisobot"i yig'ma ma'lumotlari; Yillik 1 kb shakli "Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti" ma'lumotlari;
chakana savdo	03	Yillik 1 korxona shakli "Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida hisobot"i yig'ma ma'lumotlari; Yillik 1 kb shakli "Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti" ma'lumotlari
sanoat	04	Yillik 1 korxona shakli "Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida hisobot"i yig'ma ma'lumotlari
Resurslar tushumi	05	$05 = 06+07$
Ishlab chiqarish	06	Yillik 1 korxona shakli "Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida hisobot"i yig'ma ma'lumotlari
Import	07	Bojxona statistikasi ma'lumotlari
Jami resurslar	08	$08 = 01+05$
Eksport	09	Bojxona statistikasi ma'lumotlari
Hisobot davri oxiriga qoldiq	10	$10 = 11+12+13$
<i>shu jumladan, korxonalarda</i>		
ulgurji savdo	11	02-satr kabi
chakana savdo	12	03-satr kabi
sanoat	13	04-satr kabi
Ichki bozorda sotish uchun jami resurslar	14	$14 = 08-09$
Balans bo'yicha aholiga sotish	15	$Q_i = 14-10$
Amalda aholiga sotilgani	16	$S_i =$ barcha sotish kanallari bo'yicha shakllangan chakana tovar aylanmasiga teng